

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Rossiya Federatsiyasi bilan keng ko'lamlı hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligini ta'kidladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-yanvar kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinosi Dmitriy Kozakni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Dmitriy Kozak Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Yaqinda o'tgan oliy darajadagi uchrashuv va muloqotlarda erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Rossiya o'rtaсидаги strategik sheriklikni mustahkamlash va ko'p qirrali munosabatlarni kengaytirishga kuchli sur'at bag'ishlagani alohida ta'kidlandi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yirik loyihibalar va ustuvor gumanitar dasturlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Rossiya o'rtaсидаги keng ko'lamlı hamkorlikni yanada rivojlantirish va uning salohiyatini ro'yobga chiqarish muhim ekanini qayd etdi.

Markaziy Osiyoda ro'y bergen voqelardan kelib chiqib mintaqadagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

Manba